

## ADABIYOTSHUNOSLIKDA QISSA JANRINING O'RGANILISHI VA UNING TARAQQIYOT BOSQICHLAR

Farg'ona davlat universiteti

1-kurs magistranti

**Ibroximova Zaynabxon Akbrjon qizi**

Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik tushunchalarini bir-biridan ayro holda tasavvur qilish mumkin emas, albatta. Badiiy asarning qiymatini belgilashdagi muhim omillardan biri bu – adabiyotshunoslar tomonidan unda yoritilayotgan muammo, qahramonlar xarakteri, shuningdek mavzu va g'oya, badiiy asar tili, uning kompozitsiyasi va yana bir qancha unsurlarining o'rganilishidir. Ayniqsa, asar poetikasiga to'xtalganda uning eng nozik jihatlariga ham e'tibor berish va kichik bir detalning vazifasini ham ochib berish nazariyotchilar tomonidan amalga oshiriladigan ish hisoblanadi. Hozirgi kunda o'zbek adabiyoti rivojlanib borayotgan tur va janrlardagi o'ziga xosliklar, shakl va mazmunning o'zgarishi, modernistik va posmodernistik adabiyotning shakllanishi, mantiqsizlik nazariyasi va falsafiy asarlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonda janrlar taraqqiyotida ham ko'plab o'zgarishlarning guvohi bo'lmoqdamiz. Jumladan, nasrda drabllar, mini romanlar, yoki aksincha qissa yoki roman hajmiga teng hikoyalar, nazmda esa uchchanoq va ignabarg she'rlar yoki bir so'zdan iborat lirik asarlarning yaratilishi fikrimizning yaqqol isbotidir. Xususan, ilmiy ishimiz obyekti hisoblanmish qissa janri ham dastlab paydo bo'lgandan to hozirgi kunga qadar ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilib, uning janr xususiyatlari yoxud adib qissalari poetikasi misolida dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, monografiyalar chiqarilmoqda. Dastlab, ushbu janr rus adabiyotshunosligida V.G.Belinskiy, M.Baxtin, S.Lixachev, N.Nadejdin kabi olimlar tomonidan uning tuzilishi, tabiati, janrlarga bo'linishiga ko'ra roman va hikoya oralig'idagi voqealar bayoni ekanligi shungidek, roviy nutqi, hikoya qilinishi ham nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotshunosligida I.Sulton, O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, B.Nazarov, U.Normatov, H.Umurov, Q.Yo'ldoshev,

B.Karimov, Y.Solijonov, D.Quronov<sup>1</sup> kabi bir qator olimlar tomonidan janr xususiyatlari haqida o'z asarlarida so'z yuritiladi. Qissa janrining adiblar ijodi misolida poetik strukturasi ham bir qancha tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Sh.Doniyorova, U.Rasulova va M.Boboxonovlarning<sup>2</sup> bu borada amalga oshirgan ishlari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qissa janri va uning taraqqiyot bosqichlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, lug'aviy ma'nosiga ko'ra (arabcha) hikoya, voqea, sarguzasht degan ma'nolarni anglatadi. Bu janr tavsifida Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan folklor va yozma adabiyot asarlari degan jummalarga duch kelamiz. Bu esa janr adabiyotimiz uchun tamoman yangi favqulodda janr bo'lmay, uning tarixiy kelib chiqishi o'rta asrlar badiiy merosimizga borib taqalishidan darak beradi. "O'zbek xalq eposining nuqtadon kishilari mazkur janrning o'rta asrlar xalq ommasining madaniy hayotida, ayniqsa, shahar atrofi aholisining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda utgan o'rmini alohida ta'kidlan ko'rsatganlar. Ularning ta'kidlashlaricha, ilmiy adabiyotlarda keng istifoda etiladigan "xalq kitoblari" atamasi janr mansubiyati nuqtayi nazaridan qissa janrining sinonimik atamasi hisoblanadi<sup>3</sup>. Qissa janrining o'rta asrlar og'zaki va yozma adabiyotida keng tarqalishini shunday izohlash mumkin: birinchidan, qissalar syujetining bosh qahramon hayotining muayyan davri voqealari bilan bog'liqlikda izchil, xronikali ya'ni zamon nuqaty nazaridan ketma-ketlik tamoyili asosida tasvirlanishidir. Bu esa qissaxon yoki qissanavis uchun voqelikni bayon qilish va tushunishda qulaylik yaratadi. Ikkinchidan, sharq xalqlari, xususan, fors-tojik adabiyotida keng tarqalgan mashhur syujetlarni qissa shaklida ijodiy o'zlashtirish orqali bir qancha qissalar

<sup>1</sup> Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004; Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008; Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2002; Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти, 2004; Қуронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997; Қуронов Д. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Академнашр, 2018.

<sup>2</sup> Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида янгича талкинлар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. –Б.112.; Расулова У. XX аср ўзбек киссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққийот тамойиллари). Филол.фан.док...дисс. – Тошкент: 2020. –Б.249.; Бoboxонов М. Ўзбек киссачилигида бадий психологизм. – Тошкент: Баёз. 2014. –Б.132.

<sup>3</sup> Xolmurodov A. "Qissa janri va hozirgi o'zbek qissachiligi". Til va adabiyot jurnali. 2006/3. – В. 47.

yaratganlar. Tojik adabiyotshunosi Y.Salimov qayd etishicha, X – XV asarlarda O‘rta Osiyo xalqlari jumladan, o‘zbek va tojik xalqlari adabiyot nasrida qissa va hikoyatlar yetakchi o‘rinni egallagan.

Jahon adabiyotiga anazar soladigan bo‘lsak, Yevropa adabiyotidagi sanoqli (Gofman, Valter Skott, Kuper) asarlarni aytmasak, qissa janri mavjud emas, — D.X.) nazariyaga doir to‘xtamlariga hamohanglik kasb etishi bilan birga bu jarayonga yangilik bo‘lib qo‘shiladigan jihatlariga ham ega<sup>4</sup>. Qissa epik turning o‘rta janri sifatida hikoya va roman oralig‘ida ma‘lum bir badiiy vazifasini bajaradi. Jahon adabiyotshunosligida uning janr xususiyatlari haqida gap ketganda, uch janr o‘rtasidagi chegara qay darajada saqlanganligi haqida M.V.Golovko: “Bu janr (ya’ni qissa – povest) butunlay o‘zgaruvchan, qorishiq (gibrid)dir. Povest bilan hikoya, povest bilan roman o‘rtasidagi chegaralar muttasil o‘zgaruvchandir”<sup>5</sup> deydi. Bundan anglashimiz kerakki, janr taraqqiyotidagi mukammallik kasb etilishida povestning ikki nasriy janrdan farqini ajratish muhim o‘rin tutgan. Shuningdek, V.G.Belinskiyning: «...povest inson taqdiri haqidagi tugallanmagan romandan qisqa bir manzara»<sup>6</sup>, — degan fikrida ham roman va qissa chegaralarini belgilashga ishora borligini ko‘rishimiz mumkin. D.S.Lixachev esa: «Povest romandan ko‘ra qisqaroq, personajlar ham kamroq, ularning hikoya qilinayotgan taqdiri uzun emas, syujet ixcham, hatto keskinroq»<sup>7</sup>, — degan fikrlarni bayon etadi va bu bilan qissa janri belgilarini aniqlashtirishga urinadi. Akademik Izzat Sultonovning fikriga ko‘ra: «...bir kishi va u bilan hayoti bog‘liq bo‘lgan bir necha kishining taqdiri o‘rtacha hajmda tasvir etilgan, ammo hayotning keng manzarasini chizib berishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ymaydigan asarlar povest janriga mansubdir»<sup>8</sup>. I.Sultonning ushbu qarashi hozirgi qissa ta’rifiga yaqinroq hisoblanadi.

«Adabiyotshunoslik lug‘ati»da qissa janriga quyidagicha ta’rif berilgan: «O‘zining janr xususiyatlari bilan qissa hikoya va roman oralig‘idagi hodisadir:

<sup>4</sup> Xoldorov D. Hozirgi adabiy jarayon va o‘zbek qissalari uslubi. – Toshkent: Nodirabegim. 2020.

<sup>5</sup> Головки В.М. Поэтика русской повести. — Саратов, 1992.

<sup>6</sup> Белинский В.Г. Собрание сочинений. т.3 . — Москва:, 1978.

<sup>7</sup> Лихачев Л. С. Неравнодушная проза. — Москва: Художественная литература, 1984.

<sup>8</sup> Sulton I. Adabiyot nazariyasi, — Toshkent: O‘qituvchi, 2005.



hikoyada qahramon hayotidan birgina voqea, romanda qahramon hayotining murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimidagi katta bir davri, qissada qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinadi. Hikoyaning diqqat markazida voqea, romanning diqqat markazida qahramon vositasida idrok etilayotgan olam (jamiyatning joriy holati) tursa, qissaning markazida hamisha qahramon turadi»<sup>9</sup> deb beriladi.

O'zbek adabiyotshunosligida qissa atamasi xususida jiddiy bahslar bo'lgani, adabiyotshunos olimlar U.Normatov, A.Rasulov, A.Ulug'ovlar<sup>10</sup> qissa va povest bir janring sinonim darajasidagi yagona nom ekanligini isbot qilishgani bizga ma'lum. Jumladan, adabiyotshunos Abdulla Ulug'ov 80-yillardayoq: «...povest bilan qissa termini mantiqan deyarli bir xil ma'noni anglatadi. Shuning uchun o'zbek tilida povest termini o'rniga qissa termini ishlatiladi. Endi mana shu holni inobatga olmay, yaratilayotgan ayrim asarlarning hajman katta-kichikligiga nisbat berib, «yangi janr paydo bo'ldi» deyish o'z-o'zidan bahsli»<sup>11</sup>, — degan fikrlarni bildirgan edi.

«Adabiyotshunoslik lug'ati» kitobida: «Adabiyotshunoslikda qissa bilan povest terminlarining qo'llanishi turlicha: ular sinonim sifatida ham, boshqa-boshqa janr nomlari sifatida ham ishlatiladi. Qissa bilan povestni boshqa-boshqa janrlar deb tushunish yetarli asosga ega emas, shuning uchun ulami sinonim sifatida tushunish kengroq ommalashgan»<sup>12</sup>.

Yozma mumtoz qissachilik asosan islom dini va shu bilan bog'liq shaxslar hayotiga doir bir yoki bir nechta voqeani talqin etishga qaratilgan. Bunday qissalarda ko'proq payg'ambarlar, sahobalar, avliyolar tarixiga doir voqealar aks ettirilgan. Burhoniddin Rabg'uziyning «Qisas ul-anbiyo», Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo», «Lison ut-tayr» dostoni tarkibida keladigan «Shayx San'on qissasi», mashhur «Yusuf va Zulayho» asarlari mana shu xarakterdagi qissalarga misol bo'ladi. Bunday qissalar bevosita yozma adabiy uslub yo'lida yozilib, aniq badiiy konsepsiyaga tayangan. Ularning asosida «Qur'oni karim» va Muhammad alayhissalom hadislari

<sup>9</sup> Куронов Д. ва бошқ.,. Адабиётшунослик лугати. - Тошкент: Akadem nashr, 2010.

<sup>10</sup> Normatov U. Nasrimiz ufklari. - Тошкент: 1974.; Улуков А. Киссачилигимиз к,ирралари. - Тошкент: Укитувчи, 1991.

<sup>11</sup> Улугов А. Ко'rsatilgan asar.

<sup>12</sup> Куронов Д. ва бошқ,алар. Ко'rsatilgan asar.

turgani bois muallifning badiiy niyati shunday mo‘tabar manbalar mazmunini kengroq sharhlash, ommabop qilib bayon etish bo‘lgan. Qissalarning kompozitsion qurilishi, syujet tizimida ham mumtoz qissachilik an‘analarini to‘la saqlashga harakat qilingan. Shu sababdan bu kabi qissalarda Qur‘on oyatlari, diniy, fiqhiy atamalar, Qur‘onda kelgan nomlar, arabcha, forsha jumla va iboralar ko‘p qo‘llanilgan. Bizga ma‘lumki, bunday qissachilik an‘analari, mumtoz qissa qilish uslubi XX asr boshlariga qadar davom etgan.

Sho‘ro davri o‘zbek qissachiligi boshqa millatlar adabiy ta‘sirini istisno etganda ko‘proq rus qissachiligi, rus povesti negizida shakllandi desak xato bo‘lmaydi. 40 – 50-yillardan boshlab, «qissa» terminining adabiy iste‘moldan siqib chiqarilishi, bu janr asosan «povest» termini bilan atay boshlanishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ularda rus qissalariga xos syujet, obrazlar tizimi, kompozitsion shakl, bayon uslubi ustuvorligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy qissalari, M.Gorkiy, M.Sholoxov va boshqa ko‘plab rus sho‘ro yozuvchilari asarlari o‘zbek sho‘ro qissachiligining shakllanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Faqat XX asrning 60-yillaridan boshlab, o‘zbek qissachiligi jahon realistik qissasi tomon chin ma‘noda yuz burdi. Endilikda rus yozuvchilari bilan bir qatorda Stendal, Balzak, Flober, Xemingueylar an‘analariga murojaat kuchaydi. O‘zbek qissanavislari inson shaxsi va hayot muammosini real voqelik negizida talqin eta boshladilar. Sof realistik adabiyot bilan yonma-yon U.Folkner, J.Joys, G.Markes, A.Kamyu, F.Kafka, M.Prustlarning modern uslubiga murojaat ham kuchaydi (bu jarayon ko‘proq 80-yillarda yaqqolroq ko‘rindi, bu o‘rinda ham biz nasr uslubini nazarda tutganmiz, — D.X.)<sup>13</sup>. Shu tariqa o‘zbek folklor qissachiligi, Sharq mumtoz qissachiligi, sho‘ro qissachiligi va jahon realistik hamda modernistik qissachiligi an‘analarini o‘zida mujassam etgan bugungi o‘zbek qissasi shakllandi.

XX asrning 60-yilari o‘zbek qissalari zamonning nisbatan «iliqlashuvi» bois partiyaviy ideallardan inson shaxsi, uning ruhiy dunyosi tasviri tomon yuz burdi. Bu jihat shaxs orzu va intilishlari, ehtiyoji, taqdiri va fojeaviy holatining badiiy tasvirida

<sup>13</sup> Xoldorov D. Hozirgi adabiy jarayon va o‘zbek qissalari uslubi. – Toshkent: Nodirabegim. 2020.

namoyon bo'ldi. Bir shaxs hayotiga doir murakkab voqelikni qahramon qalb kechinmalaridan o'tkazib tasvirlash yoki qissaning ilk jumlasini shu qahramon holati, ismi bilan boshlash, obrazlar ismiga katta badiiy ma'no yuklash, qissada qatnashuvchi barcha personajlar nutqini dunyoqarashi, maslagi, millati va jinsiga ko'ra individuallashtirish bunday qissalar uslubining yetakchi xususiyati sifatida ko'rinadi. Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirmqul Qodirov, O'tkir Hoshimov qissalarida ayni jihatlar yorqin aks etadi. Keyingi davr qissachiligiga xos uslub originalligi realistik, naturalistik va modern uslub sintezida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qissa janri tabiatidagi o'zgarishlar va o'ziga xosliklarni N.Norqobilov, U.Hamdani, Sh.Hamro va A.Yo'ldoshevlarning qissalari misolida qisman kuzatib o'tish lozim.

O'zbek qissalari va uning uslubi yo'ziga xosligi mana shunday jiddiy omillar bilan bevosita bogliq. Garchi to'ng'ich o'zbek qissasi namunasi sifatida A.Qodiriyning «Obid ketmon»i, professional qissa janri deb A.Qahhomning «Sinchalak» asari ko'rsatilsa ham, ular o'zining mavzusi, badiiy maqsadi, obrazlari va bayon uslubiga ko'ra zamonaviy sho'ro qissalari talablariga monandroq keladi. Birida kolxozlashtirishga nisbatan tanqidiy munosabat, ikkinchisida esa xayrixohlik va uni yoqlash ruhi aks etgan bu asarlar ma'lum ma'noda an'anaviy qissachilik mezonlarini chetlab o'tishi jihatidan o'sha davr nuqtayi nazaridan zamonaviy hisoblangan. O'zbek qissasi uslubining takomilida yozuvchi Odil Yoqubov asarlarining ham o'ziga xos o'rni bor. Uning ijodiy uslubida A.Qodiriy, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhorlar an'analari yangilangani kuzatiladi. 60-yillardagi oshkoralik siyosatidan so'ng o'zbek adabiyotida ham jahon qissachiligi an'analarga yuz burish boshlandi, Chingiz Aytmatov avlodi kirib keldi. Shu avlodning yorqin vakillaridan biri O.Yoqubov edi. Garchi yozuvchi O.Yoqubov umrining so'nggi yillariga qadar turli mavzudagi qissalar ijod qilib, bu janrga sodiq qolgan bo'lsa-da, uning 60-yillarda yozgan qissalari o'z davri uchun original, yangi adabiy talqin nafasini singdirgan, harorat va poeziyaga boy edi. Yozuvchining shunday qissalaridan biri «Muqaddas» sanaladi.

Hozirgi adabiy jarayonda ham qissa janrida ijod qilayotgan yozuvchi va ijodkorlarimiz ham yo'q emas, albatta. Ayniqsa, zamonaviy adabiyotda yangi

yoʻnalish va oqimlarning paydo boʻlishi ham ushbu janr poetikasining yanada boyishiga, yetuk boʻlishiga zamin yaratmoqda. Jumladan, modernizm ruhida yozilgan qissalar ham oʻzbek adabiyotida paydo boʻlmoqda. Bunga misol qilib Nazar Eshonqulning “Qora kitob”, ong oqimiga asoslangan Xurshid Doʻstmuhammadning “Kuza”, “Toʻrt tomoning qibla” qissalarini keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, qissa janri tarixi uzoq davrlarga borib taqalishi bilan birga, hozirgi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmay kelmoqda. Buning yorqin dalili sifatida ushbu yuqorida sanab oʻtilgan yozuvchilar ijodini keltirishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmurodov A. “Qissa janri va hozirgi oʻzbek qissachiligi”. Til va adabiyot jurnali. 2006/3. – B. 47.
2. Abrorov A., Oʻzbek povesti, T., 1973.
3. Timofeyev L.I., Osnovm teorii literaturi, 5-izd., M., 1976.
4. Normatov U., Goʻzallik bilan uchrashuv, T, 1976.
5. Quronov D. “Adabiyotshunoslik lugʻati”. – Toshkent, Akademyashr, - 2010.